2009 йил, 14 июль, сешанба

# Тошкент оқшоми

Газета 1966 йил 1 июлдан чиқа бошлаган

ШАҲАР ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ КУНДАЛИК ГАЗЕТАСИ — № 137 (11.448) — Баҳоси эркин нархда

## ОҚСАРОЙДА ҚАБУЛ

**Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримов 13 июль куни Оқсаройда Америка Қўшма Штатлари Давлат котибининг сиёсий масалалар бўйича ўринбосари Уильям Бернсни қабул қилди.**

Мамлакатимиз раҳбари ушбу учрашув томонларни қизиқтирган икки ва кўп томонлама ҳамкорлик масалалари хусусида фикр алмашиш учун қулай имконият эканини таъкидлади.

– Ташрифингизни икки мамлакатнинг узоқ муддатли манфаатларини инобатга олган ҳолда Ўзбекистон билан амалий ва самарали ҳамкорликни янада ривожлантиришга АҚШ тайёр эканининг тасдиғи деб биламиз, – деди Ислом Каримов.

Ўзбекистон — АҚШ муносабатлари халқаро ва минтақавий сиёсатни, жумладан, трансмиллий таҳдидларга қарши курашиш ҳамда минтақавий хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлашга оид кенг кўламли масалаларни қамраб олган. Мамлакатларимиз Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш, ушбу мамлакатни ижтимоий-иқтисодий тиклаш ишларида ҳамкорлик қилиб келмоқда. Ўзбекистон ҳудуди орқали Афғонистонга ноҳарбий ва гуманитар юклар етказиб берилмоқда.

Ўзбекистон ва АҚШ ўртасидаги муносабатларда ўзаро манфаатли савдо-иқтисодий ва сармоявий ҳамкорликни кенгайтириш масалаларига алоҳида аҳамият берилади.

Оқсаройдаги учрашувда У.Бернс самимий қабул учун Президентимизга миннатдорлик билдирди ва АҚШнинг ҳозирги маъмурияти Ўзбекистон билан ҳамкорликни барча соҳаларда ривожлантиришдан манфаатдор эканини таъкидлади.

Мулоқот чоғида Ўзбекистон — АҚШ муносабатларига доир ҳамда томонларни қизиқтирган бошқа масалалар юзасидан фикр алмашилди.

**(ЎзА)**




**Мустақиллик халқимизга ўзлигини англаш, миллий қадриятларимизни тиклаш ва янада бойитиш имконини берди. Халқимизни бунёдкорликка, яратувчанликка бошлади. Истиқлолимизнинг 18 йиллиги ва пойтахтимизнинг 2200 йиллиги арафасида барча соҳаларда ўзгаришлар ва янгиликларга юз тутаётган Учтепа тумани аҳолиси ҳам байрамларни ўзгача руҳ ва хуш кайфиятда, меҳнатда муносиб туҳфалар билан кутиб олмоқда.**

## ПОЙТАХТНИНГ БИР КУНИ

Тошкент 2200




## ЯНАДА ОБОД БЎЛ, ЖОНАЖОН ШАҲРИМ

Учтепа тумани Чилонзор, Шайхонтоҳур ҳамда Тошкент вилоятининг Зангиота тумани билан чегарадош ҳудудда жойлашган бўлиб, туман аҳолиси 230 минг кишини ташкил этади. Туманда 53 та маҳалла бўлиб, шулардан 17 таси кўп қаватли уйлардан ташкил топган. Туманда 33 та мактаб, 50 та мактабгача таълим муассасалари, 11 та олий ва ўрта махсус ўқув юртлари, бешта касалхона ва олтита оилавий шифохона фаолият кўрсатиб келмоқда.

Шаҳримизнинг 2200 йиллиги арафасида тўқимачилик соҳасига ихтисослаштирилган «Байпак текстил» хорижий корхонаси, «Турон текс» корхонаси ҳамда «Демакс металл» савдо мажмуасининг янгитдан қурилиб ишга туширилиши ҳисобига 400дан зиёд янги иш ўринлари ташкил этилди.

Туманда саноат ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиш суръатлари 2009 йилнинг биринчи чораги давомида ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 113,8 фоизга, истеъмол моллари ишлаб чиқариш 131,2 фоизга, савдо айланмаси 104,0, пуллик хизматлар 117,9, шу жумладан маиший хизмат кўрсатиш эса, 113,7 фоизга ошди. Ишлаб чиқарувчиларнинг маҳсулотлари экспорти 1 миллион 700 минг АҚШ долларини ташкил этиб, ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 111,8 фоизга бажарилди.

Туман ободонлаштириш бошқармаси ҳам иш фаолиятини янада жадаллаштириб, қўшимча 305 та янги иш ўринларини яратди, моддий-техник базасини кенгайтириш мақсадида 1 та янги автобус, 1 та трактор ҳамда 20 дона электр ўт ўриш мосламаси билан таъминланди.

Тумандаги Фозилтепа, Изза, Катта Қаъни, Гулистон каби кўчалар асфальтланиб, 90 000 мингдан зиёд гуллар, 5000 минг дона мевали ва манзарали кўчатлар экилди. Марказий чорраҳаларда жами 20 та гулхоналар қурдирилди. Кўп қаватли уйлар жойлашган мавзеларда қўшимча 68 та болалар майдончалари барпо этилди, 12 таси таъмирланди ва учтасида қурилиш ишлари якунига етмоқда.

Тошкентнинг 2200 йиллиги муносабати билан тумандаги марказий поликлиниканинг жарроҳлик бўлими, 22- оилавий поликлиниканинг умумий шифо амалиёти бўлимлари таъмирдан чиқарилди. Шунингдек, 3 та мактаб мукаммал, иккитаси эса жорий таъмирдан чиқарилмоқда. 93 та савдо ва маиший хизмат кўрсатиш объектларининг байрам арафасида қуриб битказилиши ҳисобига янги иш ўринларини яратиш кўзда тутилган.

Туманда иқтисодий қулай инвестицион муҳитни яратиш, корхоналарни модернизация қилиш, техник ва технологик жиҳатдан қайта жиҳозлаш, маҳсулотларнинг янги турларини яратиш ва иш ўринларини ташкил этиш, хорижий инвестицияларни кенг жалб этиш ва шу орқали ишлаб чиқаришда юқори ўсиш суръатларига эришиш мақсадида 2009-2010 йилларга жами 4014,8 минг долларга тенг бўлган хорижий банкларнинг кредитлари ҳисобидан инвестициялар киритилиши режалаштирилди.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак,учтепаликлар Мустақиллигимизнинг 18 йиллик тўйи ҳамда шаҳримизнинг 2200 йиллигини ҳар бир соҳада ўзига хос муваффақиятлар, бунёдкорлик ишларида самарали ютуқлар билан кутиб олишга шайланмоқдалар. Зеро, жаннатмакон шаҳримизнинг довруғи дунёларни тутишида ҳар бир туманнинг алоҳида ўрни бор.

**(Учтепа туманига бағишланган материаллар билан газетамизнинг 2-саҳифасида танишасиз)**

## МУСТАҚИЛЛИК — ОЛИЙ НЕЪМАТ

**Очиқ акциядорлик жамияти «Тошкент лок-бўёқ заводи» қўшма корхонасида «Мустақиллик — олий неъмат» мавзусида тадбир бўлиб ўтди.**

Республика Маънавият тарғибот маркази, Мирзо Улуғбек туман ҳокимлиги ҳамда ушбу корхона ҳамкорлигида ташкил этилган учрашув азим Тошкентнинг 2200 йиллик юбилейи ва мамлакатимиз мустақиллигининг 18 йиллигига бағишланди.

Сўнгги йилларда юртимизда барча соҳаларда олиб борилаётган ислоҳотлар таҳсинга лойиқ. Мамлакатимизнинг қайси гўшасида бўлманг, кўз кўриб қувонадиган ишлар амалга оширилганлигига гувоҳ бўласиз. Бунинг барчаси, аввало халқ фаровонлигини таъминлашга хизмат қилади, десак муболаға бўлмайди.

Тадбирда энг улуғ, энг азиз байрам — мустақиллигимизнинг 18 йиллиги шодиёналарига ҳамда пойтахтимизнинг 2200 йиллигига барча ташкилот ва корхоналар муносиб тайёргарлик кўриши лозимлиги алоҳида таъкидланди. Шунингдек, анжуманда сўзга чиққанлар мустақиллик йилларида амалга оширилган ишлар ва тарихан қисқа давр ичида рўй берган ўзгаришлар хусусида ҳам тўхталишди. Республикамизнинг барча ҳудудларида кўкаламзорлаштириш ва ободонлаштириш ишларининг юқори даражада амалга оширилаётганлиги қайд этилди.

Айтиш жоизки, халқимизнинг асрий орзуси бўлган ушбу сана юртдошларимиз ва келажак авлод ҳаётида катта аҳамиятга эга. Ўтган қисқа давр мобайнида мамлакатимизда эришилган ютуқлар ҳам эътиборлидир.

Тадбир иштирокчилари барчани шу озод ва эркин диёрга садоқатли бўлишга ундаб, жамиятнинг қайси жабҳасида бўлмасин ўзининг фидокорона меҳнатини аямаслиги кераклигини айтиб ўтишди. Шунингдек, йиғилганларга қўшма корхона томонидан Тошкентнинг 2200 йиллик юбилейига кўрилаётган тайёргарликлар хусусида батафсил маълумот берилди.

**Сурайё МЕЛИҚУЛОВА,**
**"Туркистон-пресс"**

## ҚИСҚА САТРЛАРДА

*Тошкент шаҳар ҳокимлигининг Ахборот хизмати ва ўз мухбирларимиз хабарларидан.*

✓ **КЕЧА** Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги ташаббуси билан ҳарбий хизматчилар ўртасида ташкиллаштирилган «Балли, йигитлар» кўрик-танловининг республика босқичи ғолибларини тақдирлаш маросими бўлиб ўтди.

✓ **АЗИМ** пойтахтимизнинг 2200 йиллигига бағишлаб Юнусобод туманидаги «Бободеҳқон» маҳалласида уюштирилган ободонлаштириш тадбирида маҳалла аҳли кенг кўламдаги ишларни амалга оширди.

✓ **БУГУН** Миробод туманидаги 294-мактаб қошида ташкил этилган «Саёҳат» болалар ёзги соғломлаштириш оромгоҳида туман маданият ва спорт ишлари бўлими ташаббуси билан тарбияланувчилар, тарбиячилар иштирокида уюштирилган тадбир ва концерт дастури «Ёз — ўтмоқда соз» деб номланди.

✓ **БУГУН** Ҳамза туманидаги Шароф Рашидов номли маҳаллада «Миллий ва маънавий тикланиш — хавфсизлик кафолатларидан биридир» мавзуида ўтказилган маънавий-маърифий давра суҳбатида маҳалла фаоллари, ёшлари иштирок этишди.

## XXI аср садоси

БАРЧА МАНБАЛАРДАН ОЛИНГАН СЎНГГИ ХАБАРЛАР

### МАМЛАКАТИМИЗДА

**• Жиззах вилояти ғаллакорлари давлат омборига 240 минг тоннадан зиёд ғалла топшириб йиллик шартнома мажбуриятини ошириб бажардилар. Эришилган бу муваффақиятга айниқса, Дўстлик, Зомин, Жиззах, Арнасой туманлари деҳқонлари салмоқли улуш қўшдилар.**

**• Қашқадарё вилояти ёшлар марказида Жанубий-ғарбий махсус ҳарбий округи ва «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракати вилоят бўлими кенгаши томонидан «Аскарлар оналарига эҳтиром» мавзуида анжуман ўтказилди.**

**• Андижонда маҳалла фуқаролар йиғини раисларининг диний маърифат ва маънавий-ахлоқий тарбия масалалари бўйича маслаҳатчилари учун махсус тажриба мактаби ташкил этилди. Диний идоралар вакиллари, шифокорлар ва ФҲДЁ ходимлари томонидан ўтказилаётган машғулотлар маҳалла фаоллари ҳамда маслаҳатчилари учун жуда фойдали бўлмоқда.**

**• «Ягонасан, муқаддас Ватан» республика кўрик-танловининг Самарқанд ҳамда Навоий вилоятлари босқичи бўлиб ўтди.**

**• Қорақалпоғистон Республикасининг Тўрткўл туманида янги ўқувчилар ижодиёти маркази ўз эшикларини очди. Ҳозирда бу ерда 14 та ранг-баранг тўгараклар фаолият кўрсатаётган бўлиб, уларда 600 дан ортиқ ўқувчилар ўз билим ва кўникмаларини оширмоқдалар.**

**• Зангиота туманида жойлашган ҳарбий қисмда «Маънавиятимизга таҳдид — ўзлигимиз ва келажагимизга таҳдид» мавзуида тадбир бўлиб ўтди. Мазкур тадбирда асосий эътибор ёшларимизни турли ёт ва зарарли ғоялардан асраш масалаларига қаратилди.**

**• Қарши шаҳрида «China inex invest» хорижий корхонаси иш бошлади. Масъулияти чекланган жамият шаклидаги ушбу корхонанинг низом жамғармаси 301 минг АҚШ долларига тенг бўлиб, янги корхона мазкур ҳудуддаги қурилиш ташкилотларининг эҳтиёжини ўрганиб, йиғма темир-бетон ва бетон конструкциялари ишлаб чиқара бошлади.**

**• Бутунжаҳон аҳолишунослик куни муносабати билан Ўзбекистон Миллий матбуот марказида «Ҳар бир инсон аҳамиятлидир» мавзуида матбуот анжумани ўтказилди.**

### ЖАҲОНДА

**• Нигерия, Жазоир, Нигер ҳукуматлари Саҳрои Кабир чўллари орқали Европага газ қувури тортиш юзасидан Европа Иттифоқи билан битим имзоладилар. Бу борадаги музокараларда Россиянинг «Газпром» компанияси ҳам иштирок этмоқда. Таъкидлаш жоизки, ушбу лойиҳанинг ҳаётга татбиқ этилишига 10 миллиард долларлик маблағ сарфланади.**

**• Европа Иттифоқи кўмирчилик соҳасини қўллаб-қувватлаш дастурини амалга ошириш мақсадида Украинага 8,9 миллион евро миқдорида маблағ ажратди.**

**• Гондураснинг ағдарилган президенти М.Селайя мамлакатнинг вақтинчалик ҳукуматига ультиматум эълон қилди.**

**• АҚШнинг бюджети етишмовчилиги жорий йилнинг июнь ойи охирларида бир триллион долларлик кўрсаткичга етди.**

**• Канада мазкур мамлакат фуқароларининг бошпана сўраб кўплаб мурожаат қилаётганларидан келиб чиққан ҳолда Чехия фуқаролари учун виза режимини очди.**

**• Хитойнинг Юньнань музофотида Рихтер шкаласи бўйича 6 баллга тенг зилзила содир бўлиши натижасида 18 мингта турар жой биноси вайронага айланди, 40 мингга яқин иншоотга турли даражада зарар етди. Ер силкиниши оқибатида 300 дан ортиқ киши жароҳатланган бўлиб, улардан 30 нафарининг аҳволи оғир.**

**• Шимолий Ирландияда католиклар ва протестантлар ўртасида рўй берган тўқнашувларни бостириш чоғида камида 10 нафар полициячи турли даражадаги тан жароҳатларини олди.**

**• Буюк Британиянинг «British Airways» авиакомпанияси учувчилар касаба уюшмаси иш ҳақининг 2,6 фоиз пасайтирилишига розилик билдирди.**

**• АҚШнинг иқтисодий қийинчиликларни бошидан кечираётган General Motors компанияси ўзининг инқирозга қарши чоралар стратегияси доирасида ишлаб чиқараётган автомобилларини интернет-аукцион орқали сотишини маълум қилди.**

# УЧТЕПА ТУМАНИ





ТИНЧЛИК ВА ДЎСТЛИК РАМЗИ 2200 2009 ТОШКЕНТ

# ЯНАДА ОБОД БЎЛ, ЖОНАЖОН ШАҲРИМ!





**Тумандаги йирик сармоя асосида ташкил топган «Байпак текстил» хорижий корхонасида ойига 200,0 минг АҚШ долларига тенг маҳсулот ишлаб чиқарилиб, унинг 80-90 фоизи экспорт қилинмоқда.**

Иқтисодиёт

## ҲАМКОРЛИК АСОСИДАГИ ФАОЛИЯТ

— Корхонамизда бугунги кунда икки юзга яқин ишчи-хизматчилар фаолият олиб бормоқдалар, — дейди бўлим бошлиғи Дилшод Иргашев. — Корхонада тўртта цех мавжуд бўлиб, уларда титиш, пиликлаш, йигириш ва ўраш ишлари амалга оширилади. Бу ерда бир кунда олти тоннагача пахта қайта ишланади. Жорий йилнинг беш ойи давомида калава ипларни ишлаб чиқариш бўйича 0,5 миллион евро миқдорида инвестиция киритилди. Жами киритилган инвестициялар миқдори 1,5 миллион еврога тенг.

Бугунги кунда корхонамизда иккинчи босқич қурилиш ишлари якунланиб, 5,5 миллион долларлик янги ускуналар келтириш кўзда тутилган. Айни пайтда ишни аъло даражада уддалаётган икки юзга яқин йигит-қизларимиз иш ўрганиш амалиётини ҳам айнан корхонанинг ўзида ўзлаштириб олганлар. Кўриб турганингиздек, иш жараёнлари анча енгиллаштирилган. Оператор дастгоҳдаги нуқтани босгач, компьютерга уланган ҳар бир ишлаб чиқариш жараёни узлуксиз таъминланади. Тўқувчи, ип йигирувчи операторлар ҳам ўзларига юклатилган вазифани зийраклик ва масъулият билан кўздан кечириб турадилар. Машиналар шу даражада автоматлаштирилганки, масалан ип узилгани ҳам кузатилади ва шу заҳотиёқ бартараф этилади. Асосий ходимлар таркибини шакллантиришда маҳаллий аҳоли орасидан ёшларни жалб этишга муҳим эътибор қаратилади. Ёшлар иштирокида тез-тез маънавий-маърифий йўналишдаги тадбирларнинг ўтказилиб турилиши эса корхонадаги тотувлик ва ҳамжиҳатликни янада мустаҳкамлайди. Ишчи- ходимларни ишга олиб келиш ва ишдан кейин манзилига етказиб қўйиш учун ажратилган машина ва бир маҳал иссиқ овқат билан таъминланишлари ҳам уларга яратилган асосий қулайликлардан ҳисобланади.

Таъкидлаш жоизки, пахтадан калава ип ишлаб чиқаришга ихтисослашган ушбу хорижий корхона ўтган йилнинг апрель ойида фойдаланишга топширилган эди. Германиядан келтирилган технологик ускуналарда амалга оширилаётган иш жараёнида ишчилар ҳеч бир қийинчиликсиз ўз вазифаларини уддаламоқдалар. Ип йигириш машиналарининг алоҳида ойнали деворча билан ҳимояланганн эса техника хавфсизлиги эътиборга олинганидан далолатдир. Технологик жарённинг хавфсизлиги шу қадар мустаҳкам таъминланганки, у ёки бу операцияга нотўғри ёндошилса, барча дастгоҳлар бир вақтнинг ўзида автоматик равишда тўхтайди. Корхонада пахта толаси ярим тайёр хом ашёга етказилади. Бу ерда ип калаваси ишлаб чиқарилса, кейинги жараёнлар — ипга ранг бериш, ундан мато тўқиш, тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш юмушлари «Байтекс-тижарет» хорижий корхонасида амалга оширилади. Яъни «Байпак-текстил» ва «Байтекс-тижарет» корхоналари ўртасида кооперацион алоқалар ўрнатилган. Бу эса иккала корхонада ишлаб чиқариш жараёнларининг барқарор юритилиши ва меҳнат унумдорлигининг юқори бўлишида муҳим омилдир. Ҳозирда корхонада 250 нафар ишчи-хизматчи фаолият кўрсатаётган бўлса, йил якунига бориб яна 150 та янги иш ўринлари яратилиши кўзда тутилган.

## МЕҲР-ОҚИБАТ МАҲАЛЛАДАН БОШЛАНАДИ

**Ал-Хоразмий маҳалласи нафақат туманда, балки пойтахтимиз миқёсида ҳам обод ҳамда кўркамлиги, самарали ютуқлари билан ибратли маҳаллалар сирасига киради десак муболаға бўлмайди.**

Бунга маҳалланинг обод эканлиги, кўркам ва шинам кўриниши, аҳолининг аҳил-тотув яшаши ва ҳамжиҳатлиги, каттаю кичикнинг бир-бирига бўлган меҳр-оқибати туфайли эришилган. 8325 нафар фуқаролар истиқомат қиладиган мазкур маҳалла кўп қаватли уйлардан ташкил топган.

— Маҳалламиз аҳли кўп қаватли уйларда яшашига қарамай бир-бирларининг аҳволидан ҳамиша хабар олиб, кам-кўстларини тўлдириб, ҳамқадам ва ҳамжиҳатликда яшайди, — дейди етти йилдан бери маҳаллага бошчилик қилиб келаётган фуқаролар йиғини раиси Абдувоҳид Исомуҳамедов. Шаҳримизнинг 2200 йиллик тўйини муносиб кутиб олиш учун, бизлар ҳам алоҳида тараддуд кўрдик. Кўп қаватли уйлар олдидаги олти сотихча ерга қайта ишлов бериб, кенгайтириб, гулзорга айлантириш мақсадида беш ярим мингта турли хил анвойи гул кўчатларини ўтқаздик. Уйлар олди қайта таъмирланди, ободончилик ва кўкаламзорлаштириш ишларига алоҳида аҳамият қаратмоқдамиз. Ўзимиз ташкил қилган гулзорнинг маҳалламиз кўркига янада кўрк бағишлаб турганини кўриб дилимиз яйраб, кўзимиз қувнайди. Зеро, юртимизнинг тинчлиги, халқимизнинг тўкин ва фаровон ҳаёти, ёшларимизнинг бахтли келажаги йўлида қилинаётган ҳар қандай саъй-ҳаракат истиқлол шарофатидандир.

Ал-Хоразмий маҳалласида кам таъминланган оилаларни ижтимоий ҳимоя қилиш ишлари ҳам яхши йўлга қўйилган, аҳолини иш билан таъминлаш мақсадида кичик касаначилик бўлимлари ташкил қилинмоқда. Шунингдек, маҳаллада маънавий-маърифий йўналишдаги тадбирларнинг, танловларнинг тез-тез ўтказилиши, турли спорт мусобақаларининг йўлга қўйилиши ҳам маҳалла бирлигини, тинчлигини ва аҳолининг саломатлигини таъминлайди.

**Эл соғлиғи — юрт бойлиги деган нақл бежизга айтилмаган. Кишилари ҳар томонлама соғлом ва бақувват бўлган юртда доимо осойишталик ва тараққиёт ҳукм суради. Аҳоли саломатлигининг мустаҳкамланишида туманда фаолият кўрсатаётган оила шифокорлари муҳим ҳисса қўшмоқдалар.**

Тиббиёт масканларида

## САЛОМАТЛИК — ЭНГ КАТТА БОЙЛИК

26-оилавий поликлиникада ҳам фуқаролар саломатлигини тиклаш, яхшилаш ва муҳофаза қилиш мақсадида қатор ибратли ишлар амалга оширилмоқда. Поликлиника ўтган йили капитал таъмирдан чиқарилиб, ҳозирги замон талаблари даражасидаги тиббиёт ускуналари билан жиҳозланди. Бугунги кунда ушбу тиббиёт масканида 25 нафар олий ва биринчи тоифали шифокорлар, 52 нафар малакали ҳамширалар ўз касбларига сидқидилдан ёндошиб, фаолият олиб бормоқдалар.

— Даволаш муассасамиз «Пахтакор», «Нишаб Ариқ», «Шофайзи боғи», «Шарқ юлдузи», «Дегрез», «Боғи-чинор», «Кўкча-оқтепа» каби маҳаллаларда истиқомат қилувчи 21 мингга яқин аҳолига хизмат кўрсатади, — дейди 26-оилавий поликлиника бош шифокори Сурайё Холматова. — Поликлиникамизда аҳоли соғлиғини доимий назорат қилиб бориш, уларга ҳар томонлама тиббий ёрдам кўрсатиш, оналар ва болаларнинг турли юқумли касалликларга чалиниши эҳтимолига қарши чоралар кўриш мақсадида режали ишлар амалга оширилмоқда. Соғлом она ва соғлом бола дастури асосидаги ишлар кўрсаткичи ҳам мақсадга мувофиқ ёш келин-куёвларни тиббий кўрикдан ўтказиш борасида ходимларимиз самарали фаолият олиб бормоқдалар. Даволаш кўрсаткичлари ҳам йилдан-йилга яхшиланиб бормоқда. Энг муҳими аҳоли муассасамиз ходимлари ва поликлиникада яратилган шарт-шароитлардан мамнун.

Дарҳақиқат, 26-оилавий поликлиника тўла қайта таъмирланиб кўркам қиёфа касб этди. Ташқи деразалар икки қавватли «акфа» ромларига алмаштирилди ва ён-атрофи чиройли панжара билан қопланди. Марказий зарарсизлантириш бўлимига эса, тўлиқ вентиляция тизими ўрнатилди.

Кундузги даволаниш бўлимида ҳам беморларнинг даволанишлари йўлида барча шарт-шароитлар тўла-тўкис яратилган. Малакали мутахассислар беморларга тўғри ташхис қўйиш, даволаш ишларини кўнгилдагидек бажармоқдалар.

Муассасадаги мавжуд, рентген, флюрография, физиотерапия, ЭКГ, жисмоний тарбия орқали даволаш хоналаридаги иш жараёни режим асосида йўлга қўйилган. Бир сўз билан айтадиган бўлсак, ушбу оилавий поликлиникада аҳоли саломатлигини яхшилаш, муҳофаза қилиш, асраб-авайлаш, касалликларнинг олдини олиш ва даволаш йўлида самарали ишлар амалга оширилмоқда.

## БАРЧА ҚУЛАЙЛИКЛАР ЯРАТИЛГАН

**Туманда жойлашган «Фарҳод деҳқон бозори» очиқ акциядорлик жамиятида қурилиш ва таъмирлаш ишларининг якунланиши шаҳримизнинг 2200 йиллик тўйига муносиб туҳфа бўлди.**

— Бозорнинг ички ва ташқи кўриниши, расталари, барча шохобчалари бугунги кунда ўзгача қиёфа касб этди, — дейди «Фарҳод деҳқон бозори» очиқ акциядорлик жамияти директори Фазлиддин Нуралиев биз билан суҳбатда. — 2549 та савдо ўринлари маҳсулотлар турига қараб; савдо расталари, қўл ювиш воситалари, юриш йўллари эса сотувчилар ва харидорлар эҳтиёжига қараб мослаштирилиб қайта таъмирланди. Бошқа бозорлардан фарқли равишда ҳар бир маҳсулот сотиш жойларида компьютер ўрнатилган. Айни кунда бозор 6 та секторга бўлинган бўлиб, унда тозалаш ишларини кўнгилдагидек олиб бориш учун 22 та фаррошлар фаолият олиб борадилар. Автомашиналарни сақлашга мўлжалланган 300 ўринли махсус жой ҳам харидорлар манфаатини ўйлаган ҳолда ажратилди. Сотувчиларимиз ўртасида маънавий-маърифий йўналишдаги «Маҳсулот ва сифат»», «Бозор талаблари», «Тошкент гуллар шаҳри», «Ризқ-рўзимиз ҳалолликда» каби тадбирларни тез-тез ўтказиб бормоқдамиз. Мавсумий маҳсулотларни аҳолига етказиб беришда Андижон вилояти билан ҳамкорликда ярмаркалар фаолиятини йўлга қўйганмиз. Сабзавот ва мевалар билан аҳолини арзон ва сифатли тарзда таъминлаш борасида ушбу вилоятнинг ҳам ўзига хос ўрни бор. Асосий вазифамиз эса аҳоли эҳтиёжларини имкон қадар кўнгилдагидек қондириш, бозорда санитария-гигиена ҳолатларига эътибор қаратиш, сифатли ва арзон маҳсулотлар сотишни доимий равишда назорат қилиб боришдан иборатдир.

Дарҳақиқат, «Фарҳод деҳқон бозори» очиқ акциядорлик жамиятида реконструкция ишлари тугатилиб, сотувчилар ва аҳолига қатор қулайликлар яратилди. Маҳсулот омборларининг тозалиги ва қулайлигига катта аҳамият қаратилган. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари нархини мувофиқлаштириш ишлари ҳам самарали амалга оширилмоқда. Аҳолини арзон ва сифатли маҳсулотлар билан таъминлаш борасида эса қатъий режалар белгиланган. Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, «Фарҳод деҳқон бозори» шаҳримиздаги бошқа бозорлардан нархининг нисбатан арзонлиги, шинам ва харидорларга қулайлиги билан ажралиб туради.

**Материалларни Гулчеҳра ДУРДИЕВА тайёрлади.**
**Азамат Аҳмедов олган суратлар**

## САРДОРЛАР МАКТАБИ САЁҲАТДА

**«Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракати марказий кенгашида «Сардорлар мактаби» 5-авлод вакилларининг фаол тингловчилари учун Тошкент шаҳрининг 2200 йиллиги муносабати билан «Азим Тошкентим» деб номланган тадбир ташкил этилди.**

Эрта тонгдан "Сардорлар мактаби" тингловчилари пойтахтимиз бўйлаб саёҳат уюштиришди. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллиги муносабати билан ташкил этилган ушбу тадбирдан кўзланган мақсад ёшларнинг тарихий ва маънавий билим бойлигини оширишдан иборатдир. "Сардорлар мактаби" фаол тингловчиларидан иборат 60 нафар ўқувчи дастлаб "Кўкалдош" мадрасасини зиёрат қилишди. Кейин "Ҳазрати Имом", "Шаҳидлар майдони"да бўлишди.

Бу экскурсия ёш авлод тасаввурида шаҳримиз тарихи билан боғлиқ бўлган билим-кўникмаларини шакллантириш, Тошкентнинг гуллаб-яшнашига ҳисса қўшган улуғ аждодларимизнинг эзгу ишларидан бохабар қилиш борасида муҳим ўрин тутиши шубҳасиз. Қолаверса, ёш авлоднинг миллатимиз бой тарихи, асрлар силсиласидан омон қолиб келаётган тарихий обидалару мадрасалар ҳақидаги тасаввур ва дунёқарашларини кенгайтиришга ҳам хизмат қилади.

— Пойтахтимизнинг муқаддас қадамжолари бўйлаб ўтказган саёҳатимиз барча тенгдошларимда катта таассурот қолдирди, — дейди "Сардорлар мактаби" тингловчиси Нигина Хажаева. — Буюк бобокалонларимиз томонидан бунёд этилган тарихий обидалардан ҳайратга тушган бўлсак, мустақилликдан сўнг қад ростлаган иншоотлар ҳам улардан қолишмаслигига имон келтирдик.

**Азима ҚИЁСОВА,**
**"Туркистон-пресс"**

## ИЛҒОР ЙЎНАЛИШЛАР САМАРАСИ

**Ўзбекистоннинг халқаро иқтисодий майдондаги нуфузи ва мавқеи сезиларли даражада ошиб бормоқда. Жаҳон иқтисодиёти глобаллашиб, солиқ бўйича қонунлар ва тартиблар эркинлашиб бораётган ҳозирги шароитда, Ўзбекистон Республикаси очиқ турдаги иқтисодиётга эга бўлган мустақил давлат сифатида, ташқи иқтисодий алоқаларнинг барча илғор турларини қўллаб келмоқда.**

Ушбу жараёнга ривожланаётган мамлакатлар ва бозор иқтисодиётига ўтиш даврини бошидан кечираётган давлатларнинг халқаро меҳнат тақсимотидаги роли ортиб бораётганлиги ҳам ижобий таъсир кўрсатмоқда.

Ҳозирги кунда республикамизда импортнинг ўрнини қоплаш ва экспортга йўналтирилган ишлаб чиқаришни қўллаб-қувватлаш дастури амалга оширилмоқда. Ташқи иқтисодий фаолиятни янада эркинлаштириш учун хорижий сармояларни устувор йўналишларга жадалроқ жалб қилиш, уларга кафолат ва имтиёзлар бериш, лицензиялар, «ноу-хау»лар сотиб олиш, валюта тушумларини кадрларни тайёрлашга сарфлашда эркинликлар беришга қаратилган изчил сиёсат олиб борилмоқда.

Ташқи иқтисодий фаолиятнинг самарадорлигини ошириш — ушбу соҳадаги бошқарувни такомиллаштириш, аввало, саноат йўналишидаги субъектларини бошқариш ва иқтисодий рағбатлантириш тизимини яратишга кўп жиҳатдан боғлиқдир. Жаҳон талаблари даражасидаги маҳсулотларни ишлаб чиқаришни кенгайтириш, уларнинг рақобатбардошлигини ошириш муҳим вазифа ҳисобланади. Бунинг учун субъектларни замонавий илғор технология, энг янги ускуналар, айниқса кичик ва хусусий бизнес субъектлари учун мўлжалланган ихчам ускуналар билан жиҳозлаш талаб қилинади. Бу ўз навбатида иқтисодиётга инвестицияларни жадал йўналтиришни тақозо этади.

Ўтган йил давомида юртимизда асосий капиталга инвестициялар ҳажми ва таркибида аҳамиятли ўзгаришлар рўй берган. Ўзлаштирилган барча инвестицияларнинг 50 фоизга яқини ишлаб чиқаришни модернизация қилиш ва техник қайта жиҳозлашга йўналтирилганини таъкидлаш даркор.

Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози давом этаётганига қарамасдан, 2009 йилда мамлакатимиз иқтисодиётига жалб этиладиган хорижий инвестициялар ҳажми 1 миллиард 800 миллион АҚШ долларга кўпайиши режалаштирилган, бунинг тўртдан уч қисми тўғридан-тўғри инвестициялардир. Ўзбекистонда жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози шароитида ташқи иқтисодий фаолиятни янада ривожлантириш учун ташқи иқтисодий фаолият тармоқларининг мажмуини — ихтисослаштирилган савдо уйлари, лизинг, консалтинг, франчайзинг ва суғурта фирмалари, банк, транспорт, коммуникация тизимини янада такомиллаштириш, маҳсулотларни стандартлаш ва сертификациялаш халқаро тизимига жадаллик билан ўтишни таъминлаш, доимий равишда ички ва ташқи бозор конъюнктурасини тадқиқ қилиш, харидорлар эҳтиёжига мос келадиган товарлар турларини яратишни йўлга қўйиш жоиздир.

**Анвар БАҲРОНОВ**

**Асрларнинг силсиласида маржон янглиғ тузилиб келаётган кўҳна тарих аждодларимизнинг сўзни, адабиётни ниҳоятда қадрлагани ва шунинг шарофатидан халқимиз дунё саҳнасида маънавияти юксак халқ сифатида эътирофга сазовор бўлганидан гувоҳлик беради.**

Муносабат

# АДАБИЁТ — МАЪНАВИЯТ НЕГИЗИ

Шу боис истиқлол йилларида халқ маънавиятининг кўзгуси бўлган бадиий адабиёт ривожига алоҳида эътибор берилмоқда. Ўтган ўн саккиз йил ичида собиқ иттифоқ мафкураси томонидан тақиқлаб қўйилган кўплаб бадиий адабиёт намуналари катта нусхаларда, сифатли қоғозларда нашр этилди. Уларнинг ижодкорлари номи тикланди, деярли унут бўлиб кетаёзган яна қанчадан-қанча халқ асарлари ўзининг иккинчи умрини яшай бошлади. Ана шу самарали ишлар натижасида халқимизнинг тафаккурида жиддий ўзгаришлар юз берди.

Айниқса, ана шу йиллар ичида адабиёт соҳаси вакиллари, ижодкор зиёлиларимиз ҳар дамда давлатимиз ва жамиятимиз эътиборида бўлиб келаётганини ҳис қилиб турибди. Бу эътибор уларни катта ижод намуналари, юксак бадиий асарлар яратишга илҳомлантирмоқда.

Президент Ислом Каримов адабиётимизнинг бугунги ривожи ва эртанги истиқболлари ҳақидаги "Адабиётга эътибор — маънавиятга, келажакка эътибор"деб номланган фикр-мулоҳазаларида Ёзувчилар уюшмаси фаолияти самарадорлигини ошириш, адабиётнинг миллий онгни юксалтиришдаги ролини кучайтириш юзасидан дастурий йўл-йўриқлар берди, амалий таклифларни илгари сурди. Ана шу йўл-йўриқларда ижод аҳлига бўлган эътиборни янада кучайтириш масаласи аниқ белгилаб берилди. Жумладан, давлатимиз раҳбари ёзувчи, шоирларнинг ижодий фаолиятини оширишга хизмат қиладиган Ижод фондини тузиш, ижодий фаолият учун қалам ҳақи тўлаш тизимини қайта кўриб чиқиш, Дўрмон ижод уйининг бугунги кун талаблари асосида самарали фаолият юритишини таъминлаш учун унинг низомини ўзгартириш лозимлиги юзасидан йўл-йўриқ кўрсатгандан сўнг адабиётимизга анча йиллар меҳнати сингган, қатор асарлари билан халқимиз маънавияти ривожига ҳисса қўшган кекса адибларга эътиборни янада кучайтириш зарурлигига тўхталди. Асарлари ёшларимиз учун ибрат мактаби бўлиб хизмат қиладиган оқсоқолларга ёрдам тариқасида Ижод фондидан маълум миқдордаги маблағни Ёзувчилар уюшмаси қарори билан бериб бориш масаласини таклиф этди. Шунингдек, бу савобли ишни маданият ва санъатнинг бошқа соҳаларига ҳам жорий этиш лозимлигини таъкидлади.

Бу таклиф шахсан мамлакат раҳбари томонидан илгари сурилгани билан ниҳоятда эътиборлидир. Президентимиз бу билан халқимизнинг азалий ақидаси – устозларни ҳурмат қилиш, ардоқлаш, улар учун давлат ва жамият тарафидан шарт-шароит яратиш масаласини илгари сурди. Зотан, устозларни эъзозлаган, уларнинг ҳаётий тажрибасини, бадиий маҳоратини сабр-қаноат билан ўзлаштирган ёшларнинг парвози юксак бўлиши шубҳасиз. Иншорчилик, тан олмаслик, фақат камчилик ва хато қидириш ҳеч қачон тараққиётга хизмат қилмаган, аксинча, бу иллатлар қайси соҳада илдиз отган бўлса, шу соҳанинг оёғига кишан солган. Бундай нуқсонларга бевосита Ёзувчилар уюшмаси қарши туриши, ижодкорларни миллатимиз, халқимиз тараққиёти ғояси атрофида жамлаб, уларни ана шу эзгу мақсад йўлида бирлаштириши, ижод аҳли ўртасида соғлом муҳитни шакллантириши керак.

Президент кўпчилик биладиган, аниқроғи, ҳис этадиган, лекин нималигини топиб айта олмайдиган гапни жуда оддийгина қилиб ифода этди. **"Таъбир жоиз бўлса, одам ёзувчилик касбини танламайди, аксинча, бу касб ёзувчини танлайди".** Бинобарин, дунёда қанчадан-қанча сердаромад ва сервавқ касблар орасидан бундай машаққатли, нони қаттиқ касбни бирор одам ўзича танламайди. Лекин ҳар йили қанчадир ёшлар ўзи сезиб-сезмаган ҳолда бу касбга қўл уради. Уларнинг орасида қайси бирларидир том маънода ўз қисматини шу касбга боғлайди, бадиий адабиётнинг фидойисига айланади. Ана ўшаларни танлаб ола билиш эса жамият олдидаги муҳим масалалардан биридир. Бунинг учун эса асосий мезон **"Истеъдод, истеъдод ва яна бир бор истеъдод"** бўлмоғи даркор.

Ёзувчилар уюшмаси ана шундай истеъдод соҳибларини топиш, тарбиялаш ва уларнинг меҳнатини муносиб баҳолаш масаласига бош-қош бўлмоғи лозим. Ёш ижодкорларга яратиладиган қулайликлардан яна бири, уларнинг илк китоби давлат ҳисобидан чоп этилиб, тегишли вазирликлар орқали тарқатилади.

Президент ўз таклифлари орасида болалар адабиётини ривожлантириш масаласига ҳам тўхталиб ўтди. Болалар адабиёти шахснинг камолга етишувида муҳим вазифани бажаради. Шунинг учун бу масалага жиддий ёндашмоқ лозим. Болаликданоқ мустақил фикрлашга ўрганишда мутолаа маданиятининг ҳиссаси беқиёс. Бунинг учун эса болаларни фикрлашга ундайдиган, уларни зериктирмайдиган асарлар яратилиши керак.

Давлатимиз раҳбарининг "Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор" номли фикр-мулоҳазаларида тўрт авлод алоҳида эътибор қаратилган, уларга ижодий эркинлик, моддий шароит яратиш масаласи кўтарилган. Бундай қулайлик, бундай қўллаб-қувватлашдан давлат ва Президентнинг биргина талаби бор. Бу ҳам бўлса, Ўзбекистонимизни дунёга танитадиган, унинг шонли тарихи ва нурли келажагини тараннум этадиган, халқимизнинг гўзал урф-одатларини бадиий асарлари қатига сингдириб дунёга ёядиган бақувват бадиий асарлар яратишдир. Бунинг учун бизга буюк шоирлар, буюк ёзувчилар керак. Уларни тарбиялаш учун эса барча шароит муҳайё. Зеро, пойдевори пишиқ бино мустаҳкам, меъмори моҳир бино юксак бўлади.

**Алоуддин ҒАФФОРОВ,**
**"Туркистон-пресс"**

**Аҳоли, айниқса она ва бола саломатлигини муҳофаза қилиш ҳукуматимизнинг устувор масалаларидан бири ҳисобланади. Зеро соғлом оила — соғлом жамият демакдир.**




Қарор ва ижро

# ОНА ВА БОЛА САЛОМАТЛИГИГА ЭЪТИБОР

Соғлом онадангина соғлом фарзандлар дунёга келади. Шу боис аёллар, оналар саломатлигига эътибор давлатимиз сиёсати даражасига кўтарилган.

Президентимизнинг 2009 йил 13 апрелдаги «Она ва бола саломатлигини муҳофаза қилиш, соғлом авлодни шакллантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида«ги Қарори фикримиз далилидир. Мазкур Қарор ижросини таъминлаш мақсадида яқинда Собир Раҳимов туман тиббиёт бирлашмаси ва туман ҳокимлиги ташаббуси билан туман марказий кўп тармоқли поликлиникаси ҳамда 15-оилавий поликлиникада туғиш ёшидаги аёллар ҳамда болаларни тиббий кўрикдан ўтказиш мақсадида диспансеризация ҳафталиги ташкил этилди. «Соғлом авлод учун» жамғармаси, туман ФХДЁ бўлими, «Маҳалла» жамғармаси туман бўлими ҳамкорликларида ташкил этилган ушбу ҳафталикда «Соғлом авлод учун» жамғармаси томонидан оналар ва болалар учун бепул дори-дармонлар, она ва бола саломатлигига доир буклетлар тарқатилди.

— Туманимизда жами 303604 аҳоли истиқомат қилади, 72 мингга яқин туғиш ёшидаги аёллар бўлса, бир ёшгача болалар сони 5349 тани ташкил этади, — дейди Собир Раҳимов туман тиббиёт бирлашмаси бош шифокори Алишер Нурмуҳамедов. — Президентимизнинг «Она ва бола саломатлигини муҳофаза қилиш, соғлом авлодни шакллантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори ижросини бажариш мақсадида шаҳримизнинг барча туманларида туғиш ёшидаги аёллар ва болаларни тиббий кўрикдан ўтказиш ҳафталиги ташкил қилинмоқда. Бундан кўзланган мақсад, оналар ва болалар ўртасида турли хил касалликларнинг олдини олиш, соғлом онадан соғлом бола туғилишига замин яратиш, аёллар соғлиғини муҳофаза қилишдан иборат.

Поликлиникада барча мутахассис шифокорларни, жумладан терапевт, эндокринолог, гинеколог, маммолог, жарроҳ, невропатолог, стоматолог, окулист, лор, кардиолог, психоневролог сингари мутахассисларнинг тиббий кўриги, шунингдек, лаборатор, УЗИ текширувлари ташкил этилган. Шуни ҳам таъкидлаш кераки, тиббий кўрик жараёнида касаллиги аниқланган аёллар албатта шу масканда соғломлаштирилади ёки даволанишлари учун шифохоналарга йўлланма берилади. Ҳафталикка нафақат туман тиббиёт ходимлари, балки Тошкент Тиббиёт академияси, Тошкент педиатрия ҳамда Акушер ва гинекология илмий-текшириш институтларидан шифокор олимлар жалб қилинди. «Шифонур сервис» хусусий фирмаси қошидаги «Ғунчамед» клиникаси томонидан замонавий тиббий УЗИ, скрининг аппаратлари келтирилди.

— Мамлакатимизда оналик ва болаликни муҳофаза қилиш, оилада тиббий маданиятни ошириш, энг аввало аёлларнинг саломатлигига эътиборни кучайтириш, соғлом ва баркамол авлодни камолга етказиш муҳим вазифалардан биридир, — дейди Собир Раҳимов туман хотин-қизлар қўмитаси раиси Муқаддам Расулова.— Айни кунларда шаҳримизнинг барча туманларида туғиш ёшидаги аёлларни тиббий кўрикдан ўтказиш ҳафталиги давом этмоқда. Айтиш жоизки, бир ҳафта мобайнида тиббиёт ходимлари билан биргаликда маҳалла хотин-қизлар комиссиялари раислари, маслаҳатчилар аёлларни ушбу тиббий кўрикка жалб қилишда фаоллик кўрсатиб, тарғибот ишларини олиб боришди. Туғиш ёшидаги аёлларнинг кўпчилиги нафақат ўз саломатлиги, балки бўлғуси фарзанди соғлом бўлиши учун тиббий кўрикнинг муҳим аҳамиятга эга эканлигини тушуниб, мамнун ҳолда поликлиникага ташриф буюришди. Ушбу тиббий кўрикнинг энг қулай томони шундан иборатки, кенг миқёсда аёлларга зарур бўлган тор мутахассислар жалб қилинган, замонавий тиббий аппаратлар келтирилган. Ўйлаймизки, мазкур ҳафталик аёлларнинг саломатлигини мустаҳкамлашда, соғлом авлодни шакллантиришда муҳим омил бўлади албатта.

Она ва бола саломатлигини муҳофаза қилиш мақсадида ўтказилаётган диспансеризация ҳафталиги шаҳримизнинг Яккасарой, Мирзо Улуғбек, Сергели туманларида ҳам муваффақиятли ўтказилмоқда.

**Дилором ИКРОМОВА**

**СУРАТДА: Собир Раҳимов туман марказий кўп тармоқли поликлиникасида ташкил этилган тиббий кўрик ҳафталигидан лавҳа.**

**Равшан Шокиров олган сурат**

Ҳукм ўқилди

# ҚИЛМИШЛАРИГА ЯРАША ЖАЗО

**Араб сайёҳи Ибн Баттута шундай ёзади: «Кўп юртларни кўрдим. Кўп воқеаларга гувоҳ бўлдим. Уч ҳақиқатни англаб етдим: инсонни балои нафс тубанликка, тубанлик қабоҳатга, қабоҳат жиноятга етакларкан». Бинобарин, нафс сиртмоғига бўйин тутиб, охир-оқибат залолатга юз бурганлар сизу биз умргузаронлик қилаётган бугунги кунда ҳам учраб турибди.**

...Ўтган йилнинг ёз ойлари охирида Владимир Алёшин опа-сингил Вероника ва Виктория Тельновалар билан танишиб қолади. Бу танишув улар ўртасидаги муносабатларни хиёл жиддийлаштиргач, енгил-елпи борди-келдиларнинг кўпайишига сабаб бўлади.

Ниҳоят 2008 йил 8 сентябрда Тельноваларнинг яна бир эски қадрдони Евгений Мурыгин опа-сингилларни ўзи яшаб турган Ҳамза тумани Паркент кўчасидаги хонадонга таклиф этади. Чиллаки чиллакини кўриб чумак урибди, деганларидек, тутун чиққан жойдан қолмайдиган В.Алёшин ҳам уларга қўшилиб боради. Мўъжазгина хонадонда ичкилик базми билан безанган шаккаргуфторлик ташкил этилади. Меҳмонлар тарқалишгач, мезбон кўрсаки, ўзига тегишли "Nokia-7200" уяли телефон аппарати ўғирланган. Сархушликдан тамомила ўзига келган Е.Сурыгин бу хуфя ўғирликнинг асосий айбдори сифатида В.Алёшинни кўради. Эртаси куни эса В.Алёшинга бир неча маротаба сим қоқиб, уни ўғриликда айблайди. Айбини яхшиликча тан олишини сўрайди.

– Агар телефон аппаратини вақтида олиб келиб бермасанг, милицияга мурожаат қилишга мажбурман, – дейди у фикрига якун ясаб.

Евгений Сурыгиннинг андак таҳдидли, бироз дўқпўписали гаплари В.Алёшинга чивин чаққанчалик ҳам таъсир қилмайди. Безбетга беҳад дунё, деганларидек, ўғирланган телефон аппаратидан келган мўмай пулларни совуриб юраверади. Аммо не ажабки, Е.Сурыгин ҳам оғзидаги ошини олдириб қўядиган анойилардан эмасди. У 2008 йилнинг 25 октябрида бир киши билан В.Алёшиннинг уйига келади ва гаров сифатида "DVD" видеоплеерини олиб кетади.

– Телефонни вақтида қайтар, бўлмаса "DVD"дан ажраб қоласан, – дейди у эшикдан чиқар маҳалида.

Уйидаги дурустгина жиҳоздан айрилган В.Алёшиннинг пайтавасига қурт тушади. Мол қайғуси – жон қайғуси уни карахт, кўзини кўр, қулоғини кар қилиб қўйганди.

Сўнг разил мақсадда укаси 1993 йилда туғилган Дмитрий Капитонов ҳамда Дмитрийнинг яқин ўртоқлари, 1991 йили туғилган Ринат Кавеев, 1992 йилда туғилган Дмитрий Паклар билан жиноий режа тузади. Унга кўра, йўқотилган моддий зарарни қоплаш мақсадида қўшниси, 1938 йилда туғилган Геннадий Грищенконинг уйига босқинчилик уюштириб, кекса фуқарога тегишли буюмларни тортиб олиш назарда тутилади. Бўлғуси қотиллар 2008 йилнинг 25 октябридан 26 октябрига ўтар кечаси, соат 4.00 ларда Геннадий Грищенко яшайдиган уйнинг қўнғироғини босишади. Алламаҳалда ташриф буюрган "меҳмон"ларнинг ёвуз ниятини етти ухлаб тушига ҳам келтира олмаган Геннадий Николаевич кексаларга хос вазминлик ва ҳирилдоқ овоз билан сўрайди:

– Ким?

– Биз!

Навқирон овоз соҳиби ким бўлди экан? Қўшнилардан бирортасидир? Балки кимгадир ёрдам зарурдир? Эҳтимол, набираларидан бирортаси йўқлаб келгандир?! Кўнглини бир дунё тахминлар чулғаган хонадон соҳиби эшикни очади-ю, қаршисидаги уч нафар, қора ниқобдаги ўсмирларни кўриб саросимада қолади. Геннадий Николаевичнинг кўзларида акс этган қўрқув ва таражуд босқинчиликнинг асосий ташаббускори Владимир Алёшин учун айни муддао эди. У қўлидаги шиша билан марҳумнинг пешонасига зарб билан уради. Валинеъматининг кўрсатган "кароматидан руҳланган Д.Пак қўлидаги темир сопли болғани ишга солади. Уй соҳиби бошдан-оёқ қонга беланади. Ҳушидан кетади. Қотиллар унинг аҳволидан қаноатланмай ичкарига олиб киришади ва калтаклашади. Ёши етмишдан ошган кекса киши бу зарбаларга дош бера олмайди – воқеа жойининг ўзидаёқ вафот этади.

Қотиллар ўз қурбонининг ҳаёт билан видолашганига ишонч ҳосил қилишгач, босқинчиликни давом эттиришади ва марҳумга тегишли бўлган 150.000 сўмлик "LG" русумидаги телевизор, 100.000 сўмлик "Оазис" русумидаги музлатгич, 1,5-2 метрлик 30.000 сўмлик гилам, 150.000 сўмлик газ аппарати, 15.000 сўмлик столга қўйиладиган совутгич, 15.000 сўмлик "Вента Конти" русумидаги электр дазмол, 10.000 сўмлик маиший жиҳозлар, 5.000 сўмлик темир болға, жами 475.000 сўмлик уй-рўзғор буюмларини олиб, воқеа жойидан яширинишга урининганлар.

Аммо ҳар қандай жиноят жазосиз қолмайди. Жиноят ишлари бўйича Тошкент шаҳар суди 1990 йил 15 мартда туғилган Владимир Алёшин бошчилигидаги жиноий гуруҳнинг қотиллик билан боғлиқ иш тафсилотларини атрофлича кўриб чиқди. Гувоҳлар фикри инобатга олинди, далиллар ўрганилди. Одил судлов ҳукмига кўра, ҳар учала айбланувчи ҳам Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 59, 86-моддалари билан айбдор деб топилиб, саккиз йил муддатга озодликдан маҳрум этилди.

...Жиноятчилар жазосини олди. Улар ҳаёт тақозоси ва виждон амри олдида жавоб берадилар. Бироқ ҳеч бир айбсиз, қотиллик ва зўравонлик қурбони бўлган кишининг руҳи уларни тинч қўярмикан?!

**Саодат МИРСАҒАТОВА,**
**жиноят ишлари бўйича Тошкент шаҳар суди судьяси.**
**Хидирали ПАНЖИЕВ,**
**журналист.**



# УЛУҒ САЛТАНАТ

*(Тетралогиянинг "Мироншоҳ Мирзо" номли учинчи китобидан айрим боблар)*

**Муҳаммад АЛИ,**
**Ўзбекистон халқ ёзувчиси,**
**Давлат мукофоти лауреати**

*(Давоми. Боши ўтган сонда).*

*Дунёнинг қай еридадир Искандари Зулқарнайн замонлариданми, балки ундан ҳам аввалларданми, қолган бир сирли сандиқ бор, уни ким топса, албатта муродига етади, деган нақл Амир Темур қулоғига чалинганди. Пирлари, қуддиса сирруҳу[1] Шайх Шамсиддин Кулол Темурбек тахтга минган йили Балхдан Кешга келганида, дуо қилиб бундай деди:*

*— Дунёда подшолар ўша сирли сандиқни топишга уринадилар, лекин ҳали ҳеч ким топмағон. Иншооллоҳ, ўзлари топғойлар... У сандиқнинг номи "Гулшани хазоин"дир. Ҳали бирор подшонинг бу сандиқни топғонини эшитмадук. Умидворменки, уни топмоқ ва очмоқ тақдири азалдан ўзларига буюрилғондур...*

*— "Гулшани хазоин"... Ажаб... Пирим, сандиқда не бор экан ўзи? – қизиқсиниб сўради Темурбек.*

*— У баайни дунё янглиғ хазинадур, — давом этди пир. — Биринчи қопқоқни очсалар, Абулбашар Одам Ато ридосини кўрғайлар, Мусо алайҳиссалом асосиға назарлари тушғай, Юсуф алайҳиссаломнинг олтин жоми, Иброҳим Халилуллоҳ либоси, Идрис пайғамбарнинг кумуш кашкули, Нуҳ алайҳиссаломнинг олмос тамғаси... эҳ-ҳе, нарсаларнинг адади йўқдур. Ҳар пайғамбардан бир ёдгорлик диққатингизни ўзиға тортадур... Иккинчи қопқоқни очсалар, Жамшид, Кайковус, Кайхисрав, Афросиёб, Искандари Зулқарнайн ва бошқа подшолар сийрати ёзилган хотираларни, айниқса, дунёнинг сирлари-ю жумбоқларига жавоблар тайёрлаб қўйилган бамисли Лавҳул Маҳфуздек[2] бир китобга назарлари тушади. Ул китобни насиб этиб, ўқиғон зот дунёнинг тагига етар эрмиш. Бир китобки, сизни эзгу юмушлар этагидан тутмакка чорлайдур, дунёнинг ўткинчи эканлигини унутмасликка ундайдур, зеро фоний ҳаётда фақат яхшилик йўлини тутиб яшамак — дунёнинг тагига етмак бирлан баробардур...*

*Соҳибқирон ҳали бу сандиқни тополган эмаслар, чамаси. Ҳарқалай, Мироншоҳ Мирзо бу ҳақда ҳеч нарса эшитмаган. Сеҳрли сандиқ амирзодани ҳам дил-дилидан ўзига асир этди...*

*Ўн икки йил аввал Амир Темур зафарқарин[3] қўшин бериб, ўн тўрт ёшли Мироншоҳ Мирзони Хуросон ҳокими қилиб юборди. Ўшандаёқ ёш амирзода Боғи Чинорнинг каттагина майдончасида ҳарбий машқ сирларини ўргатган устози, сирдошга айланган Ахий Жаббор баҳодирни ўзи билан олиб кетмоқчи бўлди. Бироқ баҳодир раҳматли Жаҳонгир Мирзонинг ўнбошиси эди, Хонзода хоним хизматида бандлигидан, амирзода истиҳолага бориб бир нима дейишга ийманди.*

*Кутилмаганда, тақдир Мироншоҳ Мирзо билан етти йилдан бери тул ўтирган Хоразм маликасини бир-бирига боғлаб қўйди... Шу-шу, Ахий Жаббор баҳодир ҳам ёстиқдоши Оққиз билан Хуросон ёқларда яшайди. Нишопурни олишда аён этган шахту шижоати учун баҳодирлик мансабига лойиқ топилган Ахий Жабборнинг амирзода олдида мартабаси баланд эди. Шоп мўйловига доим калта қирқилиб юриладиган мошбиринч бежирим соқоли ҳам қўшилиб элликни қоралай деб қолган баҳодир кўзга тағин-да, салобатлироқ кўринарди.*

*Чоштгоҳ маҳали амирзода чопари шаҳарнинг шимолидаги Чаманбоққа кириб келди ва Ахий Жаббор баҳодирни саройга чорлаётганлари хабарини етказди. У Учқора билан Йаналтекинларни ёнига олиб, йўлга отланди. Баҳодир Султонияга илк бор келган бўлса-да, унинг тарихини аввал синчиклаб сўраб-суриштириб билиб олган, маълум тасаввурга эга эди. Бир пайтлар ҳулагуийхонларининг шавкатли пойтахти сифатида донг таратган, теварагi ўттиз минг қадамча чиқадиган Султониянинг аввалги шукуҳидан асар йўқ. Қайсидир хон девор билан ўрашга киришганча қолиб кетган бу шаҳар юз йиллар муқаддам мўғул ҳукмдорлари Султон Арғун ва Султон Муҳаммад Худобанда замонида бунёд этилган экан. Агар шаҳар узук бўлса, беш бурчакли ҳашаматли саройни узукнинг ярқироқ кўзи дейиш жоиз.*

*Султон Худобанданинг ҳамма жойдан кўринадиган, атрофида саккиз минора қад кўтарган, улкан гумбазли, мусамман шаклидаги маҳобатли мақбарасига яқинлашганларида, Учқора сўради:*

*— Ўтган куни бир одамнинг бу ердан ўтаётиб: "Эй шоҳи Худобанда, зулмкунанда" деганини эшитдим... Ўша ҳукмдор зулмкунанда эканму, баҳодир жаноблари?*

*— Ол-а! – деди Йаналтекин. – Доим ёмонликни кавлайсан-а, отангни арвойи!*

*— Пайғамбаримиз ҳадисларида, ўтганларнинг фақат яхши хислатлари эсланади, дейилади... — тушунтирди Ахий Жаббор баҳодир. — Бу ердан ўтаётиб, шу шаҳарни бунёд айлаган султон экан, жойи жаннатда бўлсун, дейиш лозим...*

*Тиз чўкишиб фотиҳа ўқиганларидан кейин, яна йўлда давом этдилар. Шаҳардан ўнг тарафда бор кўрки-бисоти қишин-ёзин аримайдиган қорлардан иборат баланд шийдам чўққилар бўй чўзган. Балоғатга етган сарвқомат, оқбадан қизнинг сийнасини эслатадиган, оппоқ қорга чулғанган энг баланд гўзал чўққи алоҳида ажралиб туради. Гоҳида уни "Қиз сийнаси" деб ҳам қўядилар. Чапдаги тоғларда эса, умуман қор йўқ, қоялари доим чўғдай қизиб ётади, Хазар денгизининг яқинлиги сезилмайди, ҳавоси иссиқ. Тўрт томони шамолларга ланг очиқ бу шаҳар ҳали ҳам Эроннинг гавжум савдо марказларидан ҳисобланади. Барча йўллар Султонияда кесишади.*

*Чорраҳага борганларида, кўз олдиларида тўртта катта кўча пайдо бўлди.*

*— Зўр кўчалар экан, отангни арвойи! Худди шаҳар тўртта қўлини тўрт томонга чўзиб ёйилиб ётгандек... – чиройли ўхшатиш қилганидан ўзича мамнун деди Йаналтекин. — Қаерларга боради, баҳодир жаноблари?*

*— Шаҳардаям қўл бўладиму, дастингдан кетай? У сенга, нима, одамму?.. Яна тўртта эмиш! Хо-хо-хо!..*

*— Ол-а! Вей, ҳамиша олдингда оғизни очса қопасан-а, отангни арвойи!*

*— Мана бу чапдагиси Шоҳроҳи жануби, Ҳамадон орқали Бағдод, ундан Маккаи мукаррамага олиб боради. — тушунтирди гапни кесиб Ахий Жаббор баҳодир. — Ўнгдагиси Шоҳроҳи шимоли, Зинжондан кейин Ардабил, ундан Мовароуқофқоз мамлакатларига уланади, рўбарўдагиси Шоҳроҳи ғарби — Зинжону Табриз ва Рум элига боғланади, турган кўчамиз Шоҳроҳи шарқи, Қазвиндан ўтиб Хуросонга элтади. Ҳов наридан яна бир йўл билан Исфаҳон, Шероз орқали Ҳурмузга чиқиб олиш мумкин.*

*"Шоҳроҳи жанубидан кетаверсанг, кетаверсанг-да, Маккаи мукаррамадан чиқсанг!.." – деб қўйди ичида Учқора кўзлари ёшланиб.*

*(Давоми газетанинг келгуси сонида)*

[1] **Қуддиса сирруҳу**(*араб*) — сири муқаддас, эзгу бўлсин, маъносида.

[2] **Лавҳул Маҳфуз**(*араб*) — Оллоҳ башариятнинг тақдирларини ёзиб қўйган улкан китоб.

[3] **Зафарқарин** (*араб*) — зафарни яқинлаштиргувчи. Бу ерда, қудратли маъносида.

**Айни ёз кунларида барча оромгоҳларнинг эшиклари болажонлар учун очиқ. Болаларининг таътил кунларини мазмунли ўтказишларини ният қилган бир гуруҳ ота-оналар фарзандларини Ангрен шаҳридаги Стрельцов номли ёзги оромгоҳга юборишган.**

Ёз — ўтмоқда соз

# ТОҒ ҚЎЙНИДА БИР КУН

Тоғ ён бағирларида тоза ҳаво ва кенг табиат бағрида мириқиб дам олаётган болажонларни яна ҳам хушнуд этиш мақсадида мазкур оромгоҳда маънавият тарғибот маркази Юнусобод туман бўлими, маданият ва спорт ишлари бўлими ва «Тошшаҳартрансхизмат» уюшмаси ҳамкорлигида «Тошкент — азим пойтахтим» шиори остида пойтахтимизнинг 2200 йиллигига бағишлаб маънавий-маданий тадбири ташкил этилди.

Тадбирни Маънавият тарғибот маркази Юнусобод туман бўлими раҳбари Нигора Абдураҳимова очиб берди ҳамда болаларнинг зеҳнини синаш учун «Тошкентнинг қадимги номларини биласизми?» мавзуида викторина ўйинларини олиб борди.

Шундан сўнг Тошкентнинг қадимги мадраса, мақбаралари, кўчалари ва жой номлари, ҳозирда уларнинг қаерда жойлашганлиги, аввалги номи ва бугунги кунда қандай юритилиши каби бир қанча маълумотларни ўзида жамлаган ҳужжатли фильм намойиш этилди.

Саҳнага ёшларнинг севимли хонандаларига айланиб бораётган истеъдодлар — Айнура Абдуллаева ва Ситора Аҳмедоваларнинг чиқиши, улар ижро этган шўх ва қувноқ қўшиқлар болаларни рақсга чорлаб, тадбирнинг янада мазмунли ўтишини таъминлади.

Шунингдек, Мукаррама Турғунбоева ва Ҳамид Олимжон номидаги маданият уйи бадиий жамоаларининг қизиқарли концерт дастурлари болажонлар қалбига бир олам қувонч бахш этди. Айниқса, Ҳусанали Илҳомовнинг фокус томошалари болаларга ўзгача завқ бағишлади.

— Икки укам ва икки опам билан шу оромгоҳда дам олаяпмиз. Бугунги тадбир бизга жуда ёқди. Келгуси таътилни ҳам шу ерда ўтказишга аҳд қилдик. Кўплаб дўстлар орттирдик, — дейди Мирбобур Мирҳошимов.

**Зебунисо НАЗИРОВА,**
**ЎзМУ талабаси**

# МАРОҚЛИ ҲОРДИҚ ЧИҚАРИШАДИ

**Келажагимиз ворислари ҳисобланган болажонларнинг мазмунли ҳордиқ чиқаришларига эътибор қаратиш бугунги кун таълим-тарбия жараёнининг ажралмас бўғини ҳисобланади.**

Шу маънода "Меҳржон" болалар соғломлаштириш оромгоҳида амалга оширилаётган ишлар аҳамиятга моликдир.

Куни кеча мазкур ҳордиқ чиқариш масканида Ўзбекистон ХДП Марказий Кенгаши, унинг "Истиқбол" ёшлар қаноти маркази ташаббуси билан учрашув ўтказилди. Унда оромгоҳда мароқли ҳордиқ чиқараётган болажонлар, мураббийлар, оммавий ахборот воситалари ходимлари иштирок этишди.

Учрашувни Ўзбекистон ХДП Марказий Кенгаши раиси ўринбосари Мухтасар Абдураҳмонова очар экан, мамлакатимизда ёшлар истиқболига хизмат қилаётган амалий ишлар аҳамиятига алоҳида тўхталиб ўтди.

Шундан сўнг, таниқли болалар шоираси Умида Абдуазимова, ХДП "Истиқбол" ёшлар қаноти маркази раиси Акмал Умаралиев, Юнусобод туман ХДП раиси Нигора Эшматовалар сўзга чиқишиб, болажонларни тобора яқинлашиб келаётган Энг улуғ ва энг азиз шодиёна — Мустақиллигимизнинг 18 йиллиги, Тошкент шаҳрининг 2200 йиллиги билан самимий муборакбод этишди.



Биз фурсатдан фойдаланиб, оромгоҳда дам олувчи ўқувчиларни суҳбатга тортдик.

— Бу ерда яратилган шарт-шароитлар бизни беҳад қувонтирди, — дейди Нукус шаҳридаги 9-мактаб ўқувчиси Улзада Тўрамурадова ва Нукус туманидаги 20-мактаб ўқувчиси Юлдуз Қолжановалар. — Айниқса, бисер тикиш, юмшоқ ўйинчоқлар, моҳир қўллар, расм чизиш тўгаракларининг мунтазам фаолият олиб бораётгани биз ёшларга айни муддао бўлмоқда.

Бинобарин, «Меҳржон» оромгоҳида ўн йилдан ортиқ вақт мобайнида Оролбўйи минтақаси меҳнаткашларининг фарзандлари ҳордиқ чиқаришади. Санаторий типига мўлжаллангани боис ҳам бир мавсум давомида саккиз юз нафарга яқин болажонлар мазмунли дам олишлари баробарида соғлиқларини ҳам тиклаш имконига эга бўладилар.

— Масканимиз ташкил топганига ўттиз йилдан ошди, — дейди "Меҳржон" болалар соғломлаштириш оромгоҳи директори Хосият Турғунбоева биз билан суҳбатда. — Оромгоҳимизнинг бошқа ҳордиқ чиқариш масканларидан фарқли томони шундаки, 5 гектар майдонда деҳқончилик билан шуғулланамиз. Бу ерда етиштирилган маҳсулотлар мавсум давомида болажонларимизга туҳфа этилади.

Юқорида тилга олганимиздек, байрамона тусда ўтган учрашув давомида қувноқ куй-қўшиқлар, она-Ватан истиқболини мадҳ этувчи шеърлар янгради. Спорт ва бадиий чиқишларда ўз иқтидорларини намойиш этган ўқувчиларга мутасадди ташкилотларнинг совғалари топширилди.

**Ҳумоюн АЛИЕВ**

Спорт

# ҒАЛАБА БИЛАН БОШЛАШДИ

**Ўзбекистонлик ракетка устаси Алина Баронова Италиянинг Имола шаҳрида ўтказилаётган халқаро теннис турнирини ғалаба билан бошлади. Моҳир спортчимиз яккаликлар баҳсининг дастлабки босқичида мезбонлар вакиласи Елена Бартоянига қарши кортга чиқиб, беллашувда 6:0, 6:2 ҳисобида зафар қучди.**

Туркиянинг Газиантеп шаҳрида ташкил этилган халқаро теннис турнирининг жуфтликлар баҳсида қатнашаётган яна бир теннисчимиз — Нигина Абдураимова эса австралиялик Жади Ҳоппер билан биргаликда туркиялик Чағла Азгари ва Экин Кожа дуэтидан 6:1, 6:0 ҳисобида устун келди.

**Боҳир БЕК**

**Тонгда кўчаларда шодон кулиб бир-бирларининг қўлларидан ушлаб жонажон боғчалари томон кетаётган болажонларни кўрганда ҳар қандай кишини болаларча беғуборлик ва шодлик туйғулари бир муддатга бўлсада қамраб олиши сир эмас.**

«01»

# ҚОИДАЛАР ИЖРОСИ ТАЪМИНЛАНМОҚДА

Келажагимиз эгалари бўлган болаларни ҳаётга йўллашда мактабгача таълим муассасалари, мактаблар ва турли билим юртларининг ўрни бениҳоя каттадир. Ота-оналар ўз фарзандларининг келажагини ўйлаб келгусида комил инсон бўлиб вояга етишида катта замин яратувчи мактабгача таълим муассасалари тарбиясига ишониб топширишлари, ўз навбатида ушбу маскан раҳбарияти хизматчилари зиммаларига юкланган ишончни оқлаган ҳолда, болажонларнинг тарбияси, хавфсизлиги ва бошқа бир қатор масалалар юзасидан ишни тўғри ташкил қилишлари асосий вазифа этиб юклатилган. Жиддий эътибор бериб қаралиши лозим бўлган ана шундай вазифалардан бири мактабгача таълим муассасаларида ёнғин хавфсизлигини таъминлаш ва ушбу қоидаларга риоя қилишдир.

Мактабгача таълим муассасаларида биринчи рақамли хавфсизлик деб аталувчи ёнғин хавфсизлиги қоидаларига риоя қилиниши, хавфсизликнинг таъминланишини назорат қилиш ёнғин хавфсизлиги хизматининг кўп тармоқли вазифаларидан биридир. Бу борада Мирobod тумани ёнғин хавфсизлиги хизмати ходимлари туманда жойлашган барча мактабгача таълим муассасалари ҳамда мактабларда ушбу қоидаларнинг амалдаги ижроси юзасидан доимий назоратни олиб борадилар.

Миробод туманида жойлашган мактабгача таълим муассасаларида болажонлар иштирокида «Биринчи рақамли хавфсизлик» мавзусида учрашувлар доимий равишда ўтказиб борилади. Бу учрашувларни ташкиллаштиришдан асосий мақсад мактабгача таълим муассасалари хизматчиларига ёнғин хавфсизлигини таъминлаш йўлида бажаришлари лозим бўлган вазифалари, содир бўлаётган ёнғинлар мисолида ушбу қоидаларга сўзсиз риоя қилишлари ва болалар хавфсизлигини таъминлашлари лозимлиги тушунтириб борилади. Болажонларга эса хавфсизлик қоидаларига риоя қилишлари, ўзбошимчалик билан гугурт, газ плиталари, электр асбобларидан ўйинчоқ сифатида фойдаланиш қандай оқибатларга олиб келиши мумкинлиги ҳақида тушунчалар берилади. Айниқса ёнғин хавфсизлиги қоидалари сирасига кирувчи эвакуация режаси асосида фавқулодда вазиятларда болаларни бинодан эвакуация қилиш амалий машғулотларида болажонлар катта қизиқиш билан иштирок этадилар.

Бу каби тадбирларни ўтказишдан кўзланган асосий мақсад болажонларда ёнғин хавфсизлиги қоидаларига риоя қилиш борасидаги билим ва кўникмаларини оширишга эришиш, бу орқали содир бўлиши мумкин бўлган ёнғинларнинг олдини олиш, болажонлар хавфсизлигини таъминлаш, давлат мулкини асраш — бир сўз билан айтганда келажагимиз эгалари хавфсизлигини таъминлашдир.

**Илёс УМАРХОДЖАЕВ,**
**Миробод ТИИБ ЁХБ катта инспектори, кичик сержант**

Ўз-ўз ўрганиш доно бўлур

# МАШРИҚЗАМИН — ҲИКМАТ БЎСТОНИ

## ҲИКМАТЛАР

**АРАСТУНИНГ ПАНДЛАРИ**

**Искандар жангга отланиб кетиш олдидан устози Арастудан насиҳат ва маслаҳат олар экан. У бир куни Арастуни чақирди ва унга деди:**

**– Эй ҳаким, мен узоқ юртларга бормоқчиман, у ерларда турли хил одамларга дуч келаман, улар билан қандай муомала қилишим керак?**

**Ҳаким унга шундай насиҳат қилди:**

**– Эй Искандар, иложи борича одамларда ўзингга нисбатан душманлик ҳиссини уйғотма, дўстларингни эса ҳар хил сўз ва феълинг билан хафа бўлишларига йўл қўйма. Биров сенга душманлик қилса, унга ёмон кўз билан қараш ўрнига, яхши сўз ва ҳадялар билан хурсанд қил, натижада у дўстга айланади. Дўстларингнинг гапига қулоқ сол, уларнинг иззат-ҳурматини жойига қўй, шунда улар душманга айланмайди.**

**Искандар унга:**

**– Яна давом эттир, – деди.**

**Ҳаким деди:**

**– Душманинг битта, иккита бўлса ҳам уларнинг нима қилаётганидан бехабар бўлма, юмшоқлик билан қилиш мумкин бўлган ишни кўполлик билан амалга оширма!**

**ФОРОБИЙНИНГ ЖАВОБИ**

**– Кўп гапирадиган, гапни чўзадиганлар билан қандай муомала қилиш керак? – деб сўрадилар Форобийдан.**

**– Кўп гапирганни кам тинглаш керак! – деди у.**

**ЭНГ ЗАРУР НАРСАЛАР**

**Бир донишманддан:**

**– Инсон учун энг зарур нарсалар нима? – деб сўрадилар.**

**– Саломатлик, бадавлатлик ва омонлик, – деб жавоб берди у.**

**– Ёшликда ва қариган вақтда кишига қандай ишлар муносиб?**

**– Ёшликда илм ўрганиш, қариганда шу илмдан фойдаланиш.**

**АҚЛНИ ЕЙДИГАН НАРСА**

**Бир донишманддан:**

**– Сиз нега сира оғзингизга ичкилик олмайсиз? – деб сўрашса:**

**– Мен ақлимни ейдиган нарсадан ҳазар қиламан, – деб жавоб берибди.**

**ДЎСТЛАР ХИЗМАТИДАН БОШ ТОРТМАНГ**

**Абу Абдулло Муқрий айтади:**

**– Кимки ёру биродарига хизмат қилишдан бош товласа, Оллоҳ таоло уни шундай хор қиладики, ҳеч қачон ундан қутулолмайди.**

**ДОНИШМАНДЛИК СИРИ**

**Бир ҳакимдан:**

**– Кимни донишманд деса бўлади? – деб сўрашса, шундай жавоб қилибди:**

**– Ҳар бир сўзини билиб сўзлайдиган, ҳаётнинг қадрига етадиган, фазилат орттириш йўлида эринмайдиган, мол-дунёга қизиқмайдиган, мансаб-мартаба кўйида ўлиб-тирилмайдиган, бахтсизлик ва қийинчиликларни тўғри тушунадиган ва тан оладиган, бор ғайрати ва имкониятини билим олиш ва камолот касб этишга сарфлайдиган кишини донишманд деса бўлади.**

**Эргаш ОЧИЛОВ тайёрлади**


ТИЖОРАТ ХАБАРЛАРИ ВА ЭЪЛОНЛАР

## ШАХМАТ ИХЛОСМАНДЛАРИ ДИҚҚАТИГА!

2009 йил 16-25 июль кунлари пойтахт бизнес-марказида Ўзбекистон шахмат федерациясининг шаҳар бўлими ва пойтахт маданият ва спорт ишлари бўйича бош бошқармаси томонидан Тошкент шаҳрининг 2200 йиллигига бағишлаб «Тошкент шаҳар ҳокими кубоги — 2009» шахмат турнири ўтказилади.

Мазкур мусобақаларда иштирок этишни хоҳлаганлар 16 июль куни соат 12.00дан 17.00 га қадар Ўзбекистон шахмат федерацияси шаҳар бўлимида рўйхатдан ўтишлари мумкин.

Қўшимча маълумотларни қуйидаги телефонлар ёки электрон манзил орқали олиш мумкин: 239-05-18, 588-91-05.www.tashkentchess.usoz.ru
**matluba1@ yahoo.com**
**elena.5@ mail.ru**

**Тошкент шаҳар Адлия бошқармаси томонидан Яккасарой туман 2 сонли давлат нотариал идорасидаги ўрни бўш нотариуслик лавозимига**

## ТАНЛОВ ЎТКАЗИЛАДИ

**Танловда иштирок этиш истагини билдирган шахс бир ой муддат ичида қуйидаги ҳужжатларни тақдим этиши зарур:**

*а)комиссия номига ариза;*
*б)паспорт нусхаси;*
*в)шахсий варақа (сўровнома);*
*г)меҳнат дафтарчасининг нотариал тасдиқланган нусхаси;*
*д) нотариал фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқини берувчи лицензиянинг нотариал тасдиқланган нусхаси;*
*е)қайта малака имтиҳонини топширганлиги ҳақида малака комиссиясининг қароридан кўчирма;*
*ж)нотариат ишига бевосита раҳбарлик қилиш билан боғлиқ вазифаларда ишлаб келаётган талабгорларга унинг ишлаб келаётган лавозими ва ўз лавозимига мувофиқ унга юклатилган вазифалар аниқ кўрсатилган маълумотнома;*
*з)охирги иш жойидан берилган меҳнат фаолияти тўғрисидаги тавсифнома.*

*Олий хўжалик суди компьютер, принтер, нусха кўпайтирувчи, телефакс аппаратлари ва кондиционер харид қилиш бўйича*

**ТЕНДЕР ЭЪЛОН ҚИЛАДИ**

Тижорат таклифлари эълон чоп этилган кундан бошлаб 20 кун ичида соат 17.00 га қадар қабул қилинади.

*Манзил: Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани, Чўпон ота-6. тел: 273-72-30, факс 277-14-16.*

**Тендер таклифлари конвертларда қабул қилинади.**

## Ҳурматли тадбиркорлар!

*Тошкент шаҳар Адлия бошқармасида 2009 йил 15 июль куни соат 9.30 дан 18.00 га қадар «Очиқ эшиклар» куни ўтказилади.*

*Сизлар «Очиқ эшиклар» куни тадбирида ўзингизни қизиқтирган барча масалалар бўйича оғзаки ва ёзма равишда мурожаат этишингиз мумкин.*

Маълумот учун телефонлар: 262-92-42, 269-14-45


«Тошшаҳартрансхизмат» уюшмаси жамоаси 2519-Автожамланма бошлиғи Абдураҳмон Фатхуллаевич Файзуллаевга акаси **Ҳабибулла Фатхуллаевич ФАЙЗУЛЛАЕВнинг** вафот этганлиги муносабати билан чуқур таъзия изҳор этади.


МУАССИС: ТОШКЕНТ ШАҲАР ҲОКИМЛИГИ

Бош муҳаррир
Акмал АКРОМОВ

Манзилимиз: 100029, Тошкент шаҳри, Матбуотчилар кўчаси, 32

ТЕЛЕФОНЛАР:
Эълонлар: 233-28-95,
236-57-65. факс: (371) 232-11-39.
*Душанба, сешанба, чоршанба, пайшанба ва жума кунлари чиқади.*
Нашр кўрсаткичи — 563
ISSN 2010-9229

Газета Тошкент шаҳар Матбуот ва ахборот бошқармасида 02-1-рақам билан рўйхатга олинган.

Ҳажми — 2 босма табоқ, офсет усулида босилади. 2857 нусхада босилди. Қоғоз бичими А-2

Нашрни етказиб бериш масалалари бўйича турар жойлардаги почта бўлимларига ёки «Тошкент почтамти»га — 233-74-05 телефонига мурожаат қилишингиз мумкин.

Газета «Тошкент оқшоми»нинг компьютер марказида терилди ва саҳифаланди.

«Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси босмахонаси. Корхона манзили: «Буюк Турон» кўчаси, 41-уй.

156789

Топширилган вақти: 14.05